


Jahon qayta ishlangan iste'mol plastmassa bozori 2033-yilga borib ikki baravar o'sadi

// 06.08.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jahon-qayta-ishlangan-iste-mol-plastmassa-bozori-2033-yilga->



2025-yilda jahon qayta ishlangan iste'mol plastmassa (PCR – Post-Consumer Recycled) bozori hajmi 13,2 mlrd AQSH dollariga yetdi. Grand View Research prognoziga ko'ra, **2026-2033-yillar davomida bozor hajmi 14,8 mlrd dollardan 30 mlrd dollargacha oshadi.**

Bu davrda o'rtacha yillik o'sish sur'ati 10,6 foizni tashkil etadi.

Bozorning o'sishi oziq-ovqat, ichimliklar va qadoqlash sanoatida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar tomonidan barqaror rivojlanish tamoyillarining keng joriy etilishi hamda qayta ishlangan plastmassa materiallaridan foydalanish hajmining ortishi bilan izohlanadi.

Agentlik ma'lumotlariga ko'ra, eng yirik bozor Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bo'lib, umumiy daromadning 45,1 foizi aynan ushbu hudud hissasiga to'g'ri keladi. Eng tez rivojlanayotgan bozor esa Shimoliy Amerika hisoblanadi. Material turlari bo'yicha polistirol segmenti eng yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etishi kutilmoqda. Mazkur segmentning yillik o'sishi o'rtacha 5 foizni tashkil etadi. PCR-plastik (Post-Consumer Recycled) — iste'molchilar tomonidan foydalanib bo'lingan chiqindilar (masalan, plastik butilkalar va qadoqlash materiallari)ni qayta ishlash orqali olinadigan ikkilamchi polimerdir. **U yangi qadoqlash mahsulotlari hamda keng iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladi.**

PR tadqiqotiga ko'ra, jahon biologik parchalanadigan plastmassalar bozori 2025-yilda 5,4 mlrd AQSH dollariga baholanmoqda. 2034-yilga borib ushbu ko'rsatkich 19,4 mlrd dollarga yetishi, bozor esa yiliga o'rtacha 15,3 foiz sur'atda o'sishi prognoz qilinmoqda.